Annotatsiya: So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy modernizatsiya, urbanizatsiya jarayonlari hamda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning mavjudligi ichki migratsiya masalasini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda. Aholining bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib o'tishi, odatda, mehnat resurslarining hududiy taqsimlanishida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Ayniqsa, qishloq joylardan shaharlarga, iqtisodiy faol hududlardan markaziy shaharlarga bo'layotgan migratsion oqim mehnat bozori tarkibiga va bandlik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, modernizatsiya, urbanizatsiya, mintaqalararo, ijtimoiy-iqtisodiy, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiy nafaol aholi, bandlik, ichki migratsiya, migratsion jozibadorlik.

Abstract: In recent years, the processes of economic modernization, urbanization, and the existence of interregional socio-economic disparities in the Republic of Uzbekistan have made the issue of internal migration even more urgent. The migration of the population from one region to another usually leads to significant changes in the territorial distribution of labor resources. In particular, the migration flow from rural areas to cities, from economically active regions to central cities, directly affects the composition of the labor market and employment indicators.

Key words: economy, modernization, urbanization, interregional, socio-economic, labor resources, economically active population, economically inactive population, employment, internal migration, migration attractiveness.

Аннотация: В последние годы процессы экономической модернизации, урбанизации, а также наличие межрегиональных социально-экономических различий в Республике Узбекистан ещё более актуализировали проблему внутренней миграции. Перемещение населения из одного региона в другой, как правило, приводит к существенным изменениям в территориальном распределении трудовых ресурсов. В частности, миграционный поток из сельской местности в города, из экономически активных регионов в центральные города напрямую влияет на структуру рынка труда и показатели занятости.

Ключевые слова: корпоративные финансы, управление корпоративными финансами, финансовая устойчивость, управление финансовой устойчивостью предприятия, оценка финансовой устойчивости предприятия, уровень финансовой устойчивости предприятия, показатели уровня финансовой устойчивости предприятия и методика их оценки.

KIRISH

Ichki migratsiya nafaqat aholining yashash sharoitlarini yaxshilash omili, balki mehnat bozorining talab va taklif nisbatini tartibga soluvchi muhim jarayon sifatida ham e'tirof etiladi. Biroq migratsion oqimlarning haddan tashqari notekisligi ayrim hududlarda ortiqcha ishchi kuchi to'planishiga, boshqa hududlarda esa ishchi kuchi tanqisligiga sabab bo'lmoqda. Bu esa mehnat resurslaridan samarali foydalanish va hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonida yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ichki migratsiyaning mehnat bozoriga ta'sirini chuqur statistik tahlil qilish orqali aholining hududiy harakati bilan bandlik darajasi, ishsizlik ko'rsatkichlari hamda ishchi kuchining samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, davlatning hududiy mehnat siyosatini takomillashtirish, aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish hamda iqtisodiy resurslarni oqilona taqsimlashda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy islohotlar sharoitida aholi migratsiyasi jarayonlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, ichki migratsiya nafaqat aholining yashash joyini o'zgartirishi, balki mehnat bozorining shakllanishi, hududlar kesimida bandlik darajasi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ichki migratsiyaning intensivligi hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlar, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, infratuzilmaning rivojlanishi hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-yanvardagi PF-5308-sonli “O‘zbekiston Respublikasi bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni aholining ish bilan bandligini oshirish va hududlarda yangi mehnat resurslarini jalb etishga xizmat qilmoqda. Mazkur jamg‘arma resurslari hisobidan iqtisodiy faolligi past bo‘lgan hududlarda bandlikni ta‘minlash, aholining ichki migratsiya sababli yuzaga keladigan ishsizlik muammolarini bartaraf etishga qaratilgan kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ichki migratsiya va mehnat bozori o‘rtasidagi bog‘liqlik davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan boshqa hujjatlarda ham alohida o‘rin egallagan. Jumladan, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5938-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisining bandligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonda ichki mehnat migratsiyasi oqimlarini tartibga solish, migratsiya oqibati hududlarda ortib borayotgan ishchi kuchi taqsimotini muvozanatlash hamda aholining sifatli ish o‘rinlariga ega bo‘lish imkoniyatlarini kengaytirish choralar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham ichki migratsiya masalalari bevosita tilga olinib, hududlarda zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, yoshlarni yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlash va aholining yashash sharoitlarini yaxshilash migratsiya oqimlarini muvozanatlashning eng muhim yo‘nalishi ekani ta‘kidlab o‘tiladi.

Shu bois ichki migratsiyaning mehnat bozoriga ta‘sirini statistik o‘rganish hozirgi sharoitda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonni ilmiy asosda tahlil qilish, statistik ko‘rsatkichlar asosida ichki migratsiya oqimlarining mehnat bozori bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, shuningdek, iqtisodiy modellashtirish vositalari yordamida uning kelgusi rivojlanish tendensiyalarini prognozlash ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada ichki migratsiyaning mohiyati va mehnat bozoriga ta‘siri nazariy jihatdan yoritilib, statistik ko‘rsatkichlar asosida amaliy tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ichki migratsiya jarayonlarining mehnat bozoridagi bandlik, ishsizlik darajasi, hududiy farqlar va demografik omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi iqtisodiy-statistik usullar orqali o‘rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki migratsiya masalasi jahon miqyosida ko‘plab iqtisodchi va demograf olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Klassik nazariy yondashuvlardan biri bu E. Ravensteyinning “Migratsiya qonunlari” bo‘lib [1], unda migratsiya jarayonlarining asosiy yo‘nalishlari, hududiy va iqtisodiy omillarga bog‘liqligi ilmiy asosda izohlangan. Keyinchalik L. Harris va M. Todaro (1970) ichki migratsiya va urbanizatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni, qishloqdan shahar hududlariga migratsiyaning mehnat bozoridagi ishsizlik darajasi bilan qanday chambarchas aloqada ekanligini “Harris-Todaro modeli” orqali tahlil qilgan [2].

Shuningdek, S. Kuznets va J. Todaro kabi olimlar rivojlanayotgan mamlakatlarda migratsiya oqimlarini sanoatlashuv, ishchi kuchi taqsimoti va shahar mehnat bozori imkoniyatlari bilan bog‘lab o‘rganishgan [3]. Hozirgi zamonaviy yondashuvlarda esa migratsiya jarayonlari inson kapitali, mintaqaviy iqtisodiy tafvutlar va ijtimoiy infratuzilma rivojlanish darajasi bilan izohlanmoqda.

O‘zbekiston mustaqillik yillarida ichki migratsiya masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Ichki migratsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari yuzasidan bir qator mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

A. Vahobov, Q. Ibragimov va Sh. Abdullayevlarning ishlarida migratsiya jarayonlari iqtisodiy o‘sish, hududiy bandlik va mehnat bozoridagi talab-taklif nisbatlariga ta‘sir nuqtayi nazaridan tahlil qilingan [4]. M. Tohirov ichki migratsiya oqimlarining demografik jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligini, hududiy mehnat resurslari taqsimotini tartibga solishdagi roli haqida ilmiy xulosalar bergan [5].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining hisobotlari va rasmiy statistik to‘plamlarida [6] ichki migratsiya oqimlari, aholi bandligi va mehnat bozoridagi tendensiyalar bo‘yicha muntazam ma‘lumotlar keltirilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilgan farmon va qarorlarida (xususan, PF-4947, PF-5938, PQ-4702 va boshqalar) [7] ichki migratsiyani tartibga solish, yangi ish o‘rinlari yaratish, hududlararo iqtisodiy tafvutlarni kamaytirish davlat siyosatining asosiy vazifasi sifatida belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiq jarayonida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya, deduksiya, statistik, iqtisodiy, moliyaviy tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Shu bilan birga aholining turmush darajasini obyektiv statistik ma‘lumotlar asosida iqtisodiy tahlil qilish, aholining pul daromadlari va xarajatlarini o‘rganish, uy xo‘jaliklarining iqtisodiyotda qatnashish darajasi va xarajatlari tasnifini tahlil etish, ularning hududlararo ko‘chib

yurishlarini va bu jarayonlarning mehnat bozoriga ta'sirini statistik o'rganish, hamda to'plangan ma'lumotlar asosida ekonometrik modellar ishlab chiqish orqali amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining ichki migratsiyasi mehnat bozorida jarayonlarga chuqur ta'sir ko'rsatadi va buni statistik tahlil qilish orqali aniq ko'rsatish mumkin. Birinchi navbatda, migratsiyaning asosiy xususiyati shundaki, aholi ichki hududlardan boshqa hududlarga ko'chish jarayoni orqali mehnat resurslarining taqsimoti o'zgaradi. Bu esa mahalliy ishchi kuchi taklifini ko'paytirishi yoki kamaytirishi, ishsizlik darajasiga ta'sir qilishi va ayrim hududlarda ish haqi dinamikasini o'zgartirishi mumkin. Masalan, katta shaharlarga yo'nalgan migratsiya oqimlari bu yerda mehnat taklifini keskin oshirishi, ayniqsa past malakali ishchi kuchining ko'payishi sababli ish haqi o'sish sur'atlarini cheklashi mumkin. Shu bilan birga, migratsiya orqali yuqori malakali kadrlar ham markazlarga ko'chib, innovatsion sohalarda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Statistik ma'lumotlar asosida ichki migratsiyaning mehnat bozoriga ta'sirini o'rganishda aholi harakati ko'rsatkichlari (kelganlar, ketganlar va migratsiya sal'dosi), bandlik darajasi, ishsizlik ko'rsatkichi, mehnatga jalb etilish koeffitsienti, ish haqi darajasi hamda kasb va sohalar bo'yicha taqsimot asosiy indikator sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, migratsiyaning ta'siri jins, yosh va ta'lim darajasi kesimida ham turlicha namoyon bo'ladi. Masalan, yoshlar va ayollar o'rtasidagi migratsiya ko'proq xizmat ko'rsatish va norasmiy sektorda bandlikni oshirsa, yuqori ma'lumotli mutaxassislar ko'proq sanoat va xizmat sohasida ish topishi mumkin.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi mehnat resurslari dinamikasi to'g'risida ma'lumot (ming kishi)

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2024-2020 yilga nisbatan o'zgarishi	(%)
O'zbekiston Respublikasi	19158,2	19334,9	19517,5	19739,6	20085,2	927,0	104,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1074,7	1066,1	1067,6	1072,6	1098,6	23,9	102,2
Andijon viloyati	1754,8	1745,3	1780,8	1799,6	1807,4	52,6	103,0
Buxoro viloyati	1067,1	1072,3	1074,7	1089,2	1085,3	18,2	101,7
Jizzax viloyati	773,8	782,6	791,0	799,4	802,0	28,2	103,6
Qashqadaryo viloyati	1809,8	1811,0	1813,4	1826,7	1888,5	78,7	104,3
Navoiy viloyati	555,2	564,5	570,6	584,5	597,4	42,2	107,6
Namangan viloyati	1580,4	1586,1	1588,3	1603,9	1632,4	52,0	103,3
Samarqand viloyati	2125,2	2122,0	2164,8	2167,6	2190,9	65,7	103,1
Surxondaryo viloyati	1452,2	1464,6	1465,4	1486,0	1515,8	63,6	104,4
Sirdaryo viloyati	485,0	489,4	487,4	492,2	503,2	18,2	103,8
Toshkent viloyati	1615,4	1622,5	1619,2	1640,7	1671,6	56,2	103,5
Farg'ona viloyati	2069,3	2083,9	2097,8	2121,7	2143,3	74,0	103,6
Xorazm viloyati	1044,8	1047,1	1050,9	1064,3	1080,3	35,5	103,4
Toshkent shahri	1750,5	1877,5	1945,6	1991,2	2068,5	318,0	118,2

2020–2024-yillarda mehnat resurslarining barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgani statistik ma'lumotlardan yaqqol ko'rinib turibdi. Respublika miqyosida mehnat resurslari 2020-yilda 19,1 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 20,1 million kishiga yetgan. Ushbu davr mobaynida mehnat resurslari soni 927 ming kishiga yoki 4,8 foizga ko'paygan. Bunday o'sish aholining tabiiy ko'payishi hamda iqtisodiy faollik darajasining ortishi bilan bevosita bog'liqdir.

Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar eng yuqori o'sish sur'ati Toshkent shahrida kuzatilganini ko'rsatmoqda. 2020-yilda 1,75 million kishini tashkil etgan mehnat resurslari 2024-yilda 2,07 million kishiga yetgan va 318 ming kishiga yoki 18,2 foizga oshgan. Bu holat poytaxtda iqtisodiy imkoniyatlar, ish o'rinlari va aholi oqimining yuqori darajada ekanini tasdiqlaydi.

Navoiy viloyatida ham mehnat resurslari o'sish sur'ati nisbatan yuqori bo'lib, 2020–2024-yillar davomida 42,2 ming kishiga yoki 7,6 foizga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyatning sanoat salohiyati, xususan konchilik va metallurgiya sohalarida mehnat resurslariga bo'lgan talabning ortib borishi bilan izohlanadi.

Biroq ayrim hududlarda o'sish sur'atlari nisbatan past bo'lgan. Masalan, Buxoro viloyatida 18,2 ming kishiga o'sish qayd etilib, bu atigi 1,7 foizni tashkil etgan. So'nggi o'rinlarda esa Sirdaryo va Jizzax viloyatlari qayd

etilgan bo'lib, ularda mos ravishda 18,2 ming kishi (3,8 foiz) va 28,2 ming kishi (3,6 foiz) o'sish qayd etilgan. Bunday holat aholining umumiy soni hamda migratsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa mehnat resurslari 2020-yilga nisbatan 23,9 ming kishiga oshib, 2,2 foizlik o'sishni tashkil qilgan. Raqamlarning past bo'lishiga qaramay, barqarorlik tendensiyasi kuzatilmoqda.

Umuman olganda, mamlakat miqyosida mehnat resurslarining barqaror o'sishi ta'minlangan bo'lib, bu jarayonda Toshkent shahri, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlari yetakchi hududlar sifatida ajralib turadi. Buxoro, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida o'sish sur'atlari nisbatan past qayd etilgan bo'lsa-da, ushbu hududlarda ham mehnat resurslarining ortib borishi kuzatilmoqda. Ushbu dinamika O'zbekistondagi demografik jarayonlarning kuchliligini, mehnat bozorining salohiyati yildan-yilga kengayib borayotganini hamda iqtisodiyot tarmoqlarini bandlik imkoniyatlari bilan ta'minlash masalasining dolzarbligini ko'rsatadi.

2-jadval. Bandlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi)

Iqtisodiy faoliyat turlari	2020	2021	2022	2023	2024	2024–2020 yilga nisbatan o'zgarishi	(%)
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3499,2	3414,7	3438,7	3344,0	3240,7	-258,5	92,6
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	92,5	94,0	57,5	58,9	63,2	-29,3	68,3
Ishlab chiqarish sanoati	1597,7	1642,4	1630,1	1661,9	1548,3	-49,4	96,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	72,3	76,2	73,5	68,6	68,1	-4,2	94,2
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	47,0	50,6	49,5	46,5	49,7	2,7	105,7
Qurilish	1305,6	1350,8	1314,3	1502,2	1360,1	54,5	104,2
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	1405,4	1535,6	1525,2	1586,1	1504,8	99,4	107,1
Tashish va saqlash	610,5	654,2	633,1	640,4	601,5	-9,0	98,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	302,8	341,1	348,8	367,2	363,5	60,7	120,0
Axborot va aloqa	58,7	70,5	77,3	87,8	98,6	39,9	168,0
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	72,5	70,4	69,6	73,4	79,0	6,5	109,0
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	53,4	63,2	62,2	64,9	63,2	9,8	118,4
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	131,6	138,0	135,7	139,2	144,4	12,8	109,7
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	98,4	100,2	108,1	108,7	107,5	9,1	109,2
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	635,9	637,3	636,8	637,9	634,9	-1,0	99,8
Ta'lim	1158,2	1220,5	1268,7	1299,5	1320,2	162,0	114,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	669,5	650,8	671,3	694,8	695,2	25,7	103,8
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	67,0	70,2	71,7	71,9	66,6	-0,4	99,4
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	1358,2	1358,2	1534,1	1560,3	2252,4	894,2	165,8

2020–2024-yillarda O'zbekistonda mehnat bozori tarkibida qishloq xo'jaligi va sanoatda bandlar soni kamaygan. Ayniqsa, tog'-kon sohasida keskin pasayish kuzatilgan. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida — xususan, axborot va aloqa, ta'lim, ovqatlanish va boshqa xizmatlarda sezilarli o'sish qayd etilgan. Ushbu jarayon mehnat resurslarining an'anaviy tarmoqlardan zamonaviy xizmatlar sohasiga o'tayotganini ko'rsatadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda migratsiya qisqa muddatli davrda ishchi kuchi taklifini oshirib, raqobatni kuchaytiradi va ish haqi sur'atlarini pasaytiradi. Biroq uzoq muddatda u mehnat unumdorligi hamda iqtisodiy faollikning o'sishiga xizmat qiladi. Masalan, migratsiya orqali mehnat resurslari yaxshi infratuzilmaga ega hududlarga yo'nalganida, bu yerda iqtisodiy faoliyat jadallashadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu bilan birga, migrantlarning malaka va ko'nikmalarini mahalliy mehnat bozori talablariga uyg'unlashtirish davlat siyosatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

3-jadval. Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
O'zbekiston Respublikasi	127 759	127 086	673	132 637	127 086	5 551
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 440	6 388	52	8 474	6 496	1 978
viloyatlar						
Andijon	4 074	4 074	0	4 999	4 968	31
Buxoro	4 910	4 904	6	7 170	7 101	69
Jizzax	4 369	4 358	11	5 189	5 118	71
Qashqadaryo	6 028	6 026	2	9 380	9 372	8
Navoiy	7 694	7 689	5	8 357	7 484	873
Namangan	1 443	1 442	1	2 517	2 497	20
Samarqand	6 983	6 981	2	9 347	9 279	68
Surxondaryo	5 854	5 854	0	7 694	7 681	13
Sirdaryo	3 872	3 851	21	4 197	4 137	60
Toshkent	15 727	15 585	142	13 447	12 121	1326
Farg'ona	7 667	7 661	6	8 329	8 297	32
Xorazm	6 374	6 370	4	7 202	7 151	51
Toshkent sh.	46 324	45 903	421	36 335	35 384	951


2025-yil yanvar–iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlarning jami soni 127 759 kishini tashkil etdi. Shundan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 127 086 kishi, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar esa 673 kishini tashkil qildi.

Ko'chib ketganlarning jami soni 132 637 kishini tashkil etib, shundan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 127 086 kishi, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar esa 5 551 kishini tashkil etdi.

Tuzilishiga nazar tashlasak, asosiy migratsiya harakatlari ichki ko'chishlar hissasiga to'g'ri keladi: ko'chib kelganlarning qariyb 99,5 foizi va ko'chib ketganlarning 95,8 foizi ichki migratsiya hissasiga to'g'ri kelgan. Bu esa aholining mamlakat ichida mehnat va yashash sharoitlari qulayroq hududlarga yo'nalishini anglatadi.

Hududlar kesimida ko'rib chiqilganda, Toshkent shahri 46,3 ming kishi bilan ko'chib kelganlar bo'yicha mutlaq yetakchi hisoblanadi. Shu bilan birga, 36,3 ming kishi ko'chib ketgan. Shuningdek, Toshkent viloyati ham 15,7 ming kishi ko'chib kelishi bilan yuqori ko'rsatkichga ega. Ushbu hududlarning aholiga iqtisodiy imkoniyatlar, ish o'rinlari va turmush darajasi jihatidan jozibadorligi bilan izohlanadi.

Eng katta manfiy saldo Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida kuzatilgan bo'lib, bu hududlarda ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlardan bir necha ming kishiga ko'pdir.



1-rasm. Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni (kishi)

2021-yilda xorijga ko'chib ketganlar soni 10,7 ming kishiga yetib, bu davrda eng yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Keyinchalik 2022-yilda ularning soni keskin kamayib, 1,4 ming kishiga tushdi. Biroq 2023-yilda yana ortib, 9,0 ming kishiga etdi, 2024-yilda esa qayta pasayib, 5,1 ming kishiga tushdi. 2025-yilda xorijga ko'chib ketganlar soni 5,6 ming kishi bo'lib, migratsiya jarayonining nisbatan barqarorlashganini ko'rsatmoqda.

Xorijdan ko'chib kelganlar soni esa ancha past darajada saqlanib qoldi. 2021-yilda 991 kishini tashkil etgan bu ko'rsatkich keyingi yillarda 864–1581 kishi oralig'ida bo'ldi. 2025-yilga kelib xorijdan qaytganlar soni 673 kishiga kamaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari xorijga chiqib ketish ko'rsatkichlari xorijdan qaytishga nisbatan bir necha barobar yuqori ekanini ko'rsatmoqda. Bu esa O'zbekiston aholisining muayyan qismi iqtisodiy imkoniyatlar yoki mehnat bozori sababli xorijga chiqishga moyil ekanini, xorijdan qaytuvchilar soni esa cheklanganligicha qolayotganini anglatadi.

XULOSA VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ichki va tashqi migratsiya jarayonlari mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ichki migratsiya asosan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga yo'nalgan bo'lib, bu hududlarda mehnat resurslari sonining tez o'sishi kuzatilmoqda. Ayrim viloyatlarda esa aholining ko'chib ketishi ko'proq bo'lib, ishchi kuchi tanqisligi yuzaga kelishi mumkin.

Tashqi migratsiyada xorijga chiqib ketayotganlar soni xorijdan qaytuvchilarga nisbatan bir necha barobar yuqori bo'lib, bu mehnat bozori muvozanatiga salbiy ta'sir qilmoqda. Masalan, 2021–2025-yillarda xorijga ketganlar soni o'rtacha 5–10 barobar ko'p bo'lgan. Bu holat milliy mehnat resurslari oqimining tashqi bozorga yo'nalishini aks ettiradi.

Asosiy tavsiyalar:

Ichki migratsiya jarayonlarini hududiy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish, kamroq aholi ko'chib kelayotgan hududlarda ish o'rinlari va infratuzilmani rivojlantirish.

Tashqi migratsiyaga chiqayotganlar uchun mahalliy mehnat bozorida munosib maoshli ish o'rinlari yaratish hamda xorijda ishlayotgan fuqarolarni qayta integratsiya qilish dasturlarini kengaytirish.

Migratsiya jarayonlarini elektron ma'lumotlar bazasi orqali doimiy monitoring qilish va statistik tahlil natijalari asosida maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish.

Tashqi migratsiyaning salmog'ini kamaytirish maqsadida mahalliy iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish.

Qisqacha aytganda, migratsiya jarayonlari mehnat bozorida dinamikaga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda va bu jarayonni to'g'ri boshqarish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ–60-сонли Фармони. – Тошкент, 2022 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳоли бандлигини таъминлаш ва меҳнат бозорини ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–4742-сонли Қарори. – Тошкент, 2020 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. “Ўзбекистон Республикасида аҳоли миграцияси ва меҳнат ресурслари” тўплами. – Тошкент: Миллий статистика қўмитаси нашри, турли йиллар.

4. Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик муносабатлари вазирлиги “Ўзбекистонда меҳнат бозори шарҳлари”. – Тошкент, 2019–2024 йй.
5. Abdurakhmanova, G., Rakhimova, N. “Labor migration and its socio-economic consequences in Uzbekistan.” *Journal of Economics and Business Research*, 2021.
6. International Labour Organization (ILO). “World Employment and Social Outlook: Trends 2023.” Geneva: ILO, 2023.
7. United Nations, Department of Economic and Social Affairs (UNDESA). “International Migration Report 2022.” New York: United Nations, 2022.
8. Castles, S., de Haas, H., & Miller, M. J. *The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World*. London: Palgrave Macmillan, 2020.
9. Назаров, Ш.Р. “Ўзбекистонда ички миграция жараёнлари ва меҳнат бозори: статистик таҳлил”. – Тошкент давлат иқтисодиёт университети илмий журналлари, 2022 й.



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

23-24
OCTOBER
2025

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY
23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI